

# МУГАЛЛИМ ХЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРҮҮ



ISSN 2181-7138

№ 4 2020 жыл

## Илимий-методикалық журнал

**Редактор:**  
**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**  
Мақсет АЙЫМБЕТОВ  
Нағмет АЙЫМБЕТОВ  
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ  
Аманжол АЯПОВ  
Өсербай ӘЛЕҰОВ  
Байрамбай ӨТЕМУРАТОВ  
Қадирбай БЕКТУРДИЕВ  
Асқар ДЖУМАШЕВ  
Гүлнара ЖУМАШЕВА  
Амангелди КАМАЛОВ  
Сарсен КАЗАХБАЕВ  
Сабит НУРЖАНОВ  
Уролбой МИРСАНОВ  
Арзы ПАЗЫЛОВ  
Зухра СЕЙТОВА  
Айдын СУЛТАНОВА  
Норбек ТАЙЛАКОВ  
Тажибай УТЕБАЕВ  
Бекзод ХОДЖАЕВ  
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ  
Гулрухсор ЭРГАШЕВА

**Шөлкемлестирюшлер:**  
**Қарақалпақстан Республикасы**  
**Халық билимлендириу**  
**Министрлиги, ӨЗПИИИ**  
**Қарақалпақстан филиалы**

**Өзбекстан Республикасы**  
**Министрлер Кабинети**  
**жанындағы Жоқарғы**  
**Аттестация Комиссиясы**  
**Президиумының 25.10.2007**  
**жыл (№138) қарары менен**  
**дизимге алынды**

**Қарақалпақстан Баспа сөз хэм**  
**хабар агентлиги тәрәпинен**  
**2007-жылы 14-февральдан дизимге**  
**алынды №01-044-санлы гууалық**  
**берилген.**

**Мәнзил: Нөкис қаласы,**  
**Ерназар Алакөз көшеси №54**  
**Тел.: 224-23-00**  
**e-mail: [uzniipnkkf@umail.uz](mailto:uzniipnkkf@umail.uz),**  
**[mugallim-pednauk@umail.uz](mailto:mugallim-pednauk@umail.uz)**  
**[www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz](http://www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz)**

*Журналға келген мақалаларға жууан қайтарылмайды, журналда жәрияланған мақалалардан алынған узиндилер «Мугаллим хэм узликсиз билимлендириу» журналынан алынды, деп көрсетилиуи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлұматларға автор жууапкер.*

## МАЗМУНЫ

### ТИЛ ҲАМ ӘДЕБИЯТ

Алимова К.В. Гистологик терминларнинг ўзбек тилида ифодаланишининг ўзига хос хусусиятлари .....	4
---	---

### ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Рўзиев Д.У. Хориж тажрибаларидан фойдаланиш орқали ходимлар билан ишлашни ижтимоий – психологик жиҳатларини ривожлантириш .....	8
Журакулова Д.З. Сахийлик ва хасислик муаммосининг хориж психологлари томонидан ўрганилиши .....	11
Сайдуллаев А.Н., Сайфуллаева Д.И. Баркамол авлод камолотида таълим ва тарбия масалалари .....	14
Чорнев Р.К. Муҳандис-педагогик касбий таълим: муаммолар ва ривожланиш тамойиллари .....	18
Мамбетова С.М. Таълимга инновацион ёндашиш – таълим самарадорлигини ошириш мезони .....	21
Хакимова С.Х. Профessional таълим муассасаларига бўлажак ўқитувчиларни касбий фаолиятга тайёрлашга интегратив ёндашув масалалари .....	24
Шарипова Г.Н. ОТМ талабаларининг ўзини ўзи ривожлантириш компетенциясини шакллантиришда компетенциявий ёндашувнинг аҳамияти .....	28
Ҳайитов О.Э. Замонавий раҳбар кадрлар тайёрлашга инновацион ёндашув (психологик компетентлик мисолида) .....	31
Azimov S.S. Talabalarining kasbiy fanlardan kompetensiyalarini takomillashtirishda tasvirlash texnik mahoratlarining ahamiyati .....	37
Shomirzayev M.X. Maktab o'quvchilarini xalq xunarmandchiligiga o'rgatishda zamonaaviy ta'lim metodlaridan foydalanish .....	42
Даминов О.О. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлашда компетенция ва компетентликнинг роли .....	46
Karimova N. Biologiyani o'qitishda o'quvchilarini kasbga yo'naltirish shakllari .....	54
Sarimsoqova S.M. Biologiya darslarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish mazmuni va imkoniyatlari .....	57
Илхомов Б.И. Профessional таълим муассасалари бошқарувида иқтисодий компетентлик даражалари мазмуни .....	59
Жўраева Г.А. Таълимда мутахассислик фаъларини ўқитишда педагогик-психологик маҳоратни қўллашнинг аҳамияти .....	68
Салиходжаева Р.К. Таълим жараёнида инновацион технологиялар асосида бошқариш усулларида фойдаланиш .....	71
Қаюмова Д.Н. Бўлажак тарбиячиларнинг инклюзив компетентлигини шакллантириш мазмуни .....	74
Султанов Х.Э. Педагогик инновацион кластер ҳамкорлигида илмий-амалий семинарларнинг аҳамияти .....	78
Шахмурова Г.А., Сантжанова У.Ш. Развитие креативного и самостоятельного мышления у студентов при решении заданий и задач по биологии - одна из главных задач педагога .....	85
Аскарлова Н.А., Раупова Ш.А. Первая психологическая помощь в экстремальных ситуациях .....	89
Ахметова Н.С. Формирование профессиональных компетенций на занятиях специальных дисциплин по подготовке квалифицированных специалистов .....	95

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ–5847-сонли Фармони // ҚХММБ: 06/19/5847/3887-сон 09.10.2019 й [Электрон ресурс]. Кириш тартиби: URL: <http://lex.uz/pdfs/4545884> (мурожаат санаси: 24.06.2020 йил)

5. Мирзиёев Ш.Ш. 2020 йил 24 январдаги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисга Мурожаатномаси // <https://president.uz/uz/lists/view/3324> (мурожаат санаси: 24.07.2020 йил)

6. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тadbirkor халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир // Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганнинг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси [Электрон ресурс]. Кириш тартиби: URL: <https://president.uz/uz/lists/view/2180> (мурожаат санаси: 25.06.2020 йил)

7. Рейтинг стран мира по уровню образования. Гуманитарная энциклопедия: Исследования [Электронный ресурс] // Центр гуманитарных технологий, 2006–2020 (последняя редакция: 27.06.2020) Кириш тартиби: URL: <https://gtmarket.ru/ratings/education-index/education-index-info> (мурожаат санаси: 29.07.2020 йил)

8. Первая двадцатка стран с высоким уровнем образования [Электрон ресурс]. Кириш тартиби: URL: <https://nuz.uz/obschestvo/11475-pervaya-dvadcatka-stran-s-vysokim-urovнем-obrazovaniya.html> (мурожаат санаси: 29.07.2020 йил)

9. Мухамедова Д.Г. Таълим менежерини инновацион фаолиятга тайёрлашнинг ижтимоий-психологик технологияларини такомиллаштириш: Психол.ф.д. (DSc)... диссертация автореферати: 19.00.05. – Т.: ЎзМУ, 2015. – Б. 20.

10. Bloom’s taxonomy – learning in action [Electron resource]. Кириш тартиби: URL: [https://upload.wikimedia.org/wikipedia/commons/2/24/Blooms\\_rose.svg](https://upload.wikimedia.org/wikipedia/commons/2/24/Blooms_rose.svg) (мурожаат санаси: 30.07.2020 йил)

## РЕЗЮМЕ

Мақолада бўлажак менежерларни компетентли ёндашув асосида тайёрлаш ишларининг назарий жиҳатлари Ўзбекистонда Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясига мувофиқ ёритиб берилган.

## РЕЗЮМЕ

В данной статье изложены теоретические аспекты подготовки будущих менеджеров на основе компетентного подхода в соответствии с концепцией высшего образования в Узбекистане до 2030 года.

## SUMMARY

The article illuminates the theoretical aspects of preparing future managers based on a competent approach in accordance with the concept of higher education in Uzbekistan until 2030.

## TALABALARNING KASBIY FANLARDAN KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TASVIRLASH TEXNIK MAHORATLARINING AHAMIYATI

*Azimov S.S.*

*BuxDU “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrasi katta o`qituvchisi*

**Tayanch soʻzlar:** pedagog-rassom, texnik koʻnikma, qalamtasvir, pero, koʻmir, ritm, eskiz, natura, surat, sangina.

**Ключевые слова:** художник-педагог, технические навыки, перо, ритм, эскиз, натура, сангина, уголь, картина,

**Key words:** teacher of drawing, technical skills, drawing, drawing pen, coal, rhythm, sketch, nature, painting, sanguine.

Kasbiy fanlarni o'qitishda bo'lajak pedagog-rassomning ijodiy faoliyatini rivojlantirish qator imkoniyat eshiklarini ochadi. Pedagog-rassomning ijodiy faoliyatini rivojlantirish usullaridan biri esa yetuk rassomlar mahoratini va ijodiy jarayonini o'rganish orqali amalga oshiriladi. Yoshlarni faol ijodiy jarayonga jalb etish uchun taniqli rassomlar qay tarzda mahorat hosil qilganlarini izohlab berish, asarlarda obrazlarni turlicha talqin etilishini ko'rsatib berish samarali sanaladi. Ammo aslida bu ham yetarli emas. Shuning uchun pedagog auditoriyada bajariladigan akademik vazifalardan tashqari uyga vazifa sifatida buyuk rassomlar ishlagan qalamsurat namunalaridan nusxa olish topshiriqlarini berib borishi kerak. Bu topshiriqlar talabani obrazlarni yanada ifodalibroq, yorqinoq tasvirlashga o'rgatadi. Ayni damda, bo'lajak rassomlar usta-rassomlar tasviriy vositalardan qanday mohirona foydalanganliklari bilan bog'liq sirlardan voqif bo'ladilar. Ba'zibir nazariyotchilar texnikani ijoddan uzoq bo'lgan avtomatlashgan ko'nikma, hunar deb qaraydilar. Haqiqatda esa texnik mahorat ijodning eng yuqori cho'qqisi hisoblanadi. Texnik ko'nikmalarining rivojlanishi yosh rassomning ijodiy faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Kasb jihatdan mahoratni egallamagan rassom mukammal badiiy obraz yarata olmaydi, demakki, qo'yilgan masalani muvafaqqiyatli hal eta olmaydi.

Tasviriy san'at asoslarini puxta egallash talabning tabiatdagi barcha shakllar tuzilishi xaqidagi qonuniyatlarni to'g'ri ko'rishi va tushunishiga, ko'rganini to'g'ri tasvirlashiga yordam beradi. Ammo kelajakda mahoratli rassom-pedagog bo'lish uchun bular hali yetarli emas. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talaba naturadan rasm chizishning asosiy qonun-qoidalarini yaxshitushunib, eslabqolsa-da, lekin olgan ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarini yetarlicha qo'llay olmaslik hollari uchrab turadi. Shuning uchun u nazariy bilimlardan tashqari tasviriy san'atda ijro va texnik mahoratga ham ega bo'lishi kerak. Texnik ko'nikmalar bo'lajak rassom-o'qituvchi egallashi lozim bo'lgan muhim sifatlardan biridir. U amaliy mashq jarayonida texnik jihatdan qiynalmasligi kerak. Texnik mahoratlarni erkin va mohirlik bilan egallash talabning ijodga to'la berilishini, ijodiy qobiliyatlarini amalga oshirishni va yuqori malakali rassom-pedagog bo'lish imkonini beradi. Tasvirlash mahorati va texnikani bo'sh egallagan talaba o'zini amaliy ish jarayonida erkin his eta olmaydi. Natijada o'z fikri, hissiyotlarini to'la ifoda etib bera olmaydi. Bu barcha san'at turlari, ayniqsa, tasviriy san'atning asosi bo'lgan qalam tasvir uchun taalluqlidir. Qadimgiakademik ta'lim maktablaridatasvirlashtexnikasigakatta e'tibor berilgan. Shuningdek, usta rassomlar ilgari rasm chizish san'ati bilan birinchi bor tanishishda shogirdlarga usta rassomlar namunalaridan nusxa ko'chiish vazifasiga berganlar va unda asosiy e'tibor ijro texnikasiga qaratilgan. Bularni olimlar Julen, A.T.Skino, V.V.Pukirev, A.K.Savrasov qo'llanmalarida ko'rish mumkin.

Ko'p hollarda bo'lajak rassom-pedagog tayyorlashda ijro texnikasi haqidagi masala esdan chiqarib qoldiriladi. Shuning uchun texnik ko'nikmalar va mahoratning rivojlanishi ijodiy faoliyat hisoblanmaydi deb ta'kidlash biror bir ilmiy asosga ega bo'lmagan xato, yanglishishdir. Talabning egallab borayotgan mutaxassislik mahorati nafaqat ta'lim jarayoni sifatini belgilaydi, balki undagi pedagogik, ijodiy qobiliyatlarning namoyon bo'lishiga yordam beradi. Qobiliyat harqanday buyuk shaxs iste'dodining asosini tashkil etadi. Ijodiy kompetensiyalar va texnik mahoratlarni harqanday ijodiy ishning, shuningdek tasviriy faoliyatning asosidir. Ko'nikmalar mashqlar bajarish jarayonida mustahkamlanib boradi. Mashqlar amiq ishlab chiqilgan va tartibli tizimga asoslangan bo'lishi kerak. To'g'ri olib borilgan mashqlar va ishlarni bajarish usullarini egallash natijasida kerakli texnik ko'nikmalar paydo bo'ladi, rivojlanadi. Masalan, qalam tasvir mashqlarini bajarish

jarayonida talaba shtrixlar tortish va buyum shaklini, hajmini to'g'ri berishi uchun qo'llarini erkin harakatlantirishga o'rgatishi hamda barmoqlar harakatlarini bir maromga yetkazishi kerak. Ko'pyillik ilmiy izlanish, pedagogik faoliyat natijalari va tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, qo'lni harakatlantirish ko'nikmalari va rasm chizish bo'yicha amaliy mashqlar uchta bosqichda namoyon bo'ladi.

1. Masalan, rozetkaning balandligini eniga nisbatan kattaligini aniqlash uchun qo'lga qalamni ushlab uzatgan holda rozetkaning kichik tomoni-nining o'lchamini qalamda bosh barmoq bilan belgilab rozetka balandligiga qo'yib taqqoslaymiz. So'ngra ushbu topilgan nisbatni qog'ozda belgilaymiz. Shu usulda bir guruh buyumlardan tashkil etilgan natyurmort yoki boshqalarni o'zining hamda o'zaro nisbatlarini to'g'ri tasvirlash mumkin.

2. Rassomlarda qo'l bilan harakat qilish mahoratini shakllantirish muhim hisoblanadi. Dastlabki mashg'ulotlar uzun chiziqdami qo'lni uzmasdan chizish bo'yicha o'tkazilishi kerak. Agar chiziq egri, notekis chiqsa, kerakli talabga javob beruvchi chiziq hosil bo'lgunicha qayta-qayta chizish tavsiya etiladi. qisqa yoki nuqtali chiziq bilan ishlash mumkin emas.

3. Talaba qalamni oxiridan-charxlangan uchiga nisbatan qarama-qarshi tarafdin ushlashi va jimjiloqni qog'ozga ohista qo'ygan xolda shtrixlar bajarishi kerak. Bunday ish yuritilganda qalam qog'oz yuzasida istalgan burchak bo'yicha harakatlana oladi. Kerakli tus chiqarish uchun shtrixlarni teng intervallarda bir-biriga mos ravishda chizish orqali erishiladi.

O'quv vazifalarini bajarish jarayonining dastlabki bosqichidanoq talabalarni qo'lni to'g'ri tutish hamda rasm chizishga o'rgatish kerak. Keyinchalik esa ularga naturadan rasm bajarish vaqtida qo'llanishi lozim bo'lgan texnik usullar o'rgatilishi lozim. Bu esa talabalarning ijodiy qobiliyatini har jihatdan rivojlantirishga imkon beradi.

Insonning mavjud tajribasi asosida ma'lum usul va ushblarni qo'llash orqali kerakli shaklni haqqoniy bajara olish qobiliyatiga tasvirlash mahorati deb aytiladi. Badiiy ijodiy faoliyatda mahorat avvaldan olingan bilim va ko'nikmalar asosida yuzaga keladi. Yoshlar bilan ishlashda mahoratning asta-sekinlik bilan rivojlantirilishiva takomillashtirilishi doimo esda saqlanishilozim. Talabada mahorat dastlab oddiyroq va soddaroq yo'sinda ifodalanadi, keyinchalik esa to'g'ri ko'nikmalar ishlab chiqish jarayonida ular mustahkamlanib boradi. Shuni ham alohida takidlash kerakki, tasviriy jarayonda xatolarga yo'l qo'yilganida ularni qanday bartaraf etish uchun "harakatlar namunasi" bo'lishi kerak. Mahorat va ko'nikmalar to'g'risda taniqli psixolog B.F.Lomov shunday deb yozadi: "Mahorat murakkab psixik jarayon asosida tashkil topadi. Birorbir faoliyat turiga tegishli ko'nikmalar tizimi bilan birgalikda mashqlar bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Bunga erishish uchun odam faqatgina kerakli ko'nikmalar hamda bilimlar tizimini egallagan bo'lishi kerak. "Mahorat bilan bajarilgan harakat" – bu har doim ham ishning muvaffaqiyatini belgilaydi. Tasviriy san'at borasidagi bilimlar tizimi (perspektiva qonuni, nisbatlar, chiziqli konstruktiv tuzilish, yorug'-soya munosabatlari, shaklplastikasiv.b.) ko'nikmalar tizimi bilan birgalikda talabani o'z oldiga qo'ygan masalalarni mustaqil yechishga tayyorligini belgilaydi.

Ma'lumki, bilimlar uch ko'rinishda namoyon bo'ladi: tasavvur, ko'nikma, malaka. Mahorat bilan tasvirlay olish talabani aqliy harakatlarini ham rivojlantiradi. Mahorat bilan harakat qilish–bu "aql bilan" harakat qilish, ish jarayonlarini mustaqil rejalashtirish, harqanday vaziyatda harakatlarning eng to'g'ri usullarini topish demakdir. Mahorat va ko'nikma ba'zi jihatlari bilan bir-biridan farqli bo'lib, ko'nikma, avtomatik ravishda harakat bajarish uchun bir xillikka xosdir. Mahorat esa, aksincha, yangi masalalarni hal etishda namoyon bo'ladi. U yangi sharoitlarda to'g'ri yo'l topishni ko'zda tutadi va ilgariqi tajribasida egallagan malakalarini shunchaki qaytarish sifatida bo'lmay, balki ijodkorlikni

ham o'z ichiga oladi. Deylik, talaba tasviriy san'at qonun-qoidalarini ta'lim tarbiya jarayonida puxta egallagan va yuqori reyting natijalarga erishgan bo'lsa-da, o'z bilimlarini o'quv dala amaliyotida namoyon etishda ba'zi qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shuning uchun professional mahoratni egallash jarayoni ijoddan uzoq bo'lmagan bir hodisa va uni oddiy mexanik tarzda ish bajarish deb hisoblash mumkin emas. Tasviriy san'at asoslarini egallash bu ijodiy jarayondir, lekin u har bir talabada turlicha namoyon bo'ladi. Ko'pgina hollarda talabaning texnik mahorat darajasi sustligi chizuvchining ijodiy faolligi bo'shligini ham bildiradi: texnik mahorat darajasi yuqoriligi, aksincha, uning katta ijodiy imkoniyatlari ustunligini anglatadi. Shu bilan birga "rasm chizish texnikasi" va "uslub" tushunchalarini aralastirib yuborish ham noto'g'ri. Uslub – bu rassomning o'z usuli bo'lib, uning xarakterli xususiyatlari va harakatlari bilan bog'liq bo'ladi. Tasviriy san'atda qalam, ko'mirsangina, tush va boshqa materiallar bilan ishlashning ko'plab texnik uslublari mavjud bo'lib, talaba rasm chizishning ma'lum texnikasiga faqatgina uzoq vaqt mashqlar jarayonida erishishi mumkin.

Tasviriy san'at texnikasining harbir turi o'ziga xos xususiyatga ega va talaba qalam, ko'mir, sangina vositasida nimalarga erishish mumkinligini va bitta material bilan (oddiy qoraqalam) qanday natijalarga ega bo'lish mumkinligini bilishi kerak. Masalan, ko'mir bilan ishlaganda yoki sangina bilan surat chizishda turli texnikani qo'llashi mumkin: 1. Birinchi holatda shaklga tus berish bilangina cheklanishi mumkin. 2. Ikkinchi holatda tus berish bilan shtrixlarni birgalikda bajarishga o'tiladi. Lavhalar chizishda, masalan, hayvonot bog'ida serharakat jonivorlarni tasvirlashda uzoq muddatda rasm chizish texnikasi endi zarur bo'lmay qoladi. Bunda boshqa texnik vosialar va materiallar kerak bo'ladi. Masalan, qalamni pero yoki mo'yqalam bilan almashtirib, talaba ancha vaqtni tejaydi va shaklni suratda ancha to'la, mazmunli ifoda etish imkoniga ega bo'ladi. Tush yoki siyoh bilan ho'llangan mo'yqalam tasvirda chiroyli, aniq chiziqni beradi, bu esa tasvirga alohida emotsional ifoda beradi. Pero bilan bajarilgan rasm esa, aksincha, ingichka, nozik bo'lib, plastik jihatdan shaklga o'zgacha ko'rk beradi. Bundan tashqari pero bilan ishlash talabalarni tartib bilan ish yuritishga undaydi, boshidan ishga diqqat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatadi hamda chiziqni juda o'ylab, aniq hisob bilan chizishni talab etadi. Pero talabani tartibga, mohirlik bilan ishlashga o'rgatadi, qo'l harakatlari yengil bo'ladi. Shuning uchun Uyg'onish davri rassomlari pero bilan rasm chizishga katta ahamiyat berganlar. Ayni damda, qisqa vaqt davom etadigan mashqlarni bajarish jarayonida (lavha, xomakirasm) talabalarning birnecha xil materiallardan foydalanishi yaxshi natija beradi. Masalan, ko'mir, bo'r va sangina bilan birgalikda amaliy mashqlarni bajarish natijasida talaba tasviriy san'at materiallarini puxta o'zlashtiradi. Birnecha material vositasida vazifa bajarish unga texnik usullarni egallash va ijodiy izlanishlar uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Umuman olganda, lavhalar, chizgilar ustida ishlash davomida talabaning ijodiy faoliyati alohida rivojlanadi. Shuning uchun usta rassom-pedagoglarning ta'limning aynan ana shu turiga katta ahamiyat berishlari bejiz emas. Texnik mahoratlarni egallab borgan sayin ijodga keng yo'l ochiladi. Shuning uchun tasviriy san'at ashyolaridan to'g'ri foydalanishni o'rganish talaba uchun muhim shartlardan biridir. Texnik mahorat haqida gapirganimizda biz, avvalo, kuchli mazmunga ega bo'lgan ijodni namoyon etuvchi vositalarni ko'zda tutamiz.

Badiiy shakl turli xil texnik usullar bilan ifoda etilishi mumkin. O'quv akademik rasmining vazifasi talabalarga ana shu texnik usullarni qo'llay olish va amalda qaysi usullar orqali ko'rsatib berishdan iborat. Masalan, grafit qalam uchun rasm chizishning shtrixli texnikasi ko'proq to'g'ri keladi, bularni biz qadimgi akademik maktab rassomlarida uchratish mumkin: ko'mir, sous, sangina pushti tusli kattaroq tasvirlarni chizishda mos

keladi. Ularni biz Leonardo da Vinchi, Albrext Dyurer, Rafayel Santi kabi mashhur san'at ustalari asarlarida ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birga faqatgina surat chizishning biror-bir usulini ustun qo'yish ham mumkin emas. Talaba o'z tashabbusi bilan, o'zi xohlagan usul va texnik uslub bilan ham yaxshi natijaga erishishi mumkin, ba'zan esa pedagog taklif etgan usuldan foydalangani ham ma'qul. Bunday hollarda ustozdan ma'lum pedagogik mahorat talab etilib, shogirdni individuallik xususiyatlarini kerakli tomonga yo'naltirish talab etiladi. Pedagog talabaga o'z ta'sirini ko'rsatishga harakat qilmasligi va uni o'zining uslubida ishlashga majbur etmasligi kerak. Ko'pincha, pedagoglar talabaning ishini tuzatarkan, rasm bajarish texnikasini emas, balki uslubini ko'rsatadi: uning kichik bir qismini bajarib o'quvchiga shu usulda davom ettirishni topshiradi, o'quvchi boshqa usulda ishlayotganini sezib qolsa, unda ishini to'xtatib, o'quvchining rasmni yana tuzatishga boshlaydi. Pedagogning bunday ish uslubi talabaning ijodiy tashabbusini so'ndiradi. Yosh rassomning muvaffaqiyatga erishishi uchun qo'li, ko'zi va fikrlarining mos ravishda tartibli bo'lishiga erishish zarur, fikri qo'l harakatlarini boshqarsin, ko'z esa bu harakatlar to'g'riligini tekshirsin. Bu oddiy haqiqatni tasviriy san'at borasida ta'lim-tarbiya olib boruvchi ustozlar bilishlari hamda o'z o'quvchilari e'tiborini shunga qaratishlari lozim.

Talabaga rasm chizish ko'nikma va mahoratini egallashida yordam berish uchun unga qo'lini, ko'zini va aqlini mashq qildiruvchi maxsus topshiriqlar berish kerak. Bu mashqlar samarali bo'lishi uchun talabadan quyidagilar talab etiladi:

- 1) har bir amaliy mashqni bajarish jarayonida talabaning masq sifatini oshirishga intilishi;
- 2) har gal yana yaxshiroq ishlashga harakat qilishi;
- 3) natijalami hisobga olishi va har bir vazifada yo'l qo'ygan xatolari sabablarini tushunishi;
- 4) natura bilan o'zi bajarayotgan vazifani doimo tekshirib borishi;
- 5) "oddiydan murakkabga" usulida asta-sekin murakkab vazifalarga o'tib borishi;
- 6) tasviriy faoliyatda vaqtni to'g'ri taqsimlashi;
- 7) o'z ishiga tanqidiy munosabatda bo'lishi, atrofdagi tengdosh rassomlarning muvaffaqiyatlarini tan ola bilishi hamda ularga tenglashishga harakat qilishi;
- 8) ijodiy jihatdan doimo sog'lom raqobatdosh bo'lishi.

Texnik usullarni o'rganish asab tizimi va bosh miya faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Rassom qo'l harakatlarini ko'p yillar davomida amaliy mashqlar bajarish jarayonida puxta tayyorlab boradi.

Ushbu qoidalar bugungi kunda o'ta dolzarb bo'lib, bizga bo'lajak rassom-pedagoglar bilan ishlashda metodikani to'g'ri tanlashga yordam beradi. Shuningdek yuqorida keltirilgan qoidalar ba'zi talabalarda rasm chizishda kutilmagan va shiddatli muvaffaqiyatlarga erishishlarining sabablarini anglashga yordam beradi. Ilgari bunday hollar oddiygina, tug'ma iste'dod deb tushunilar edi. Ko'p yillik pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, deyarli har bir pedagogda o'quv yili boshlanishida bir guruh juda is'tedodli talabalar beriladi. Shundan keyin ularning soni kamayib ketadi, yil oxirida bitta-ikkitasigina qoladi. Bu hol aksincha bo'lishi ham mumkin, pedagog unchalik ishonmagan talabadan juda ham mohir rassomlar yetishib kela boshlaydi. Bu esayosh rassomning o'sishi, uning ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishi faqatgina tug'ma, tabiiy is'tedodiga aloqador bo'lmay, ko'p jihatdan uning o'zi ustida jiddiy va tinmay ishlashiga ham bog'liqligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar:

1. B.B. Boymetov. Qalamtasvir. Darslik. – Toshkent: Musiqa, 2006 y.

2. В.Boymetov. Qalamtasvir.Pedagogika institutlari va universitetlaritalabalar uchuno'quvqo'llanma.– Toshkent,1997 y.
3. Tojiyev В. Qalamtasvir(dastlabkisaboqlar). Metodikqo'llanma.– Toshkent,2013y.
4. M. Toshmurodov. Chizmatasvir.Qo'llanma.– Toshkent: Noshir, 2012 y.
5. P.Thomas, A. Taylor Drawing. – London, 2011y.
6. B.Barber. Fullcourseof thedrawing. – Barselona, 2014y.

## РЕЗЮМЕ

Maqolada bo'lajak pedagog-rassomning ijodiy faoliyatini yuzaga keltirishda tasviriy san'at texnikasining muhimligi, tasviriy san'at texnikasining o'ziga xos jihatlari, talabada rasm chizish ko'nikma va mahoratini rivojlantiruvchi maxsus topshiriqlar va shu kabi masalalar yoritilgan.

## РЕЗЮМЕ

Данная статья посвящена необходимости формирования навыков техники изобразительного искусства в творческой деятельности будущего педагога-художника, своеобразные аспекта техники изобразительного искусства, специальные задания по развитию умений и навыков у студентов по рисованию, а также другие проблемы, посвященные данной теме.

## SUMMARY

The article discusses the importance of the art technique in the creative activity of a future teacher of drawing, the features of the art technique, special tasks that develop students' drawing skills.

**МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ХАЛҚ ХУНАРМАНДЧИЛИГИГА  
ЎРГАТИШДА ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИДАН  
Фойдаланиш**

*Shomirzayev M.X.*

*Термиз давлат университетининг “Umumtexnika fanlari va texnologiya”  
kafedrasi do'stenti, pedagogika fanlari nomzodi*

**Таянч сўзлар:** хунараманд, урф-одаглар, устоз-шогирд анъанаси, билим, кўникма, малака, бадний безак, фаолият.

**Ключевые слова:** ремесленник, ритуал, традиция учителя-ученика, знания, умения, навыки, художественное оформление, деятельность.

**Key words:** artisan, ritual, tradition of teacher-student, knowledge, skills, decoration, activity.

Умумтаълим мактабларида ўқувчиларни халқ хунарамандчилигига ўргатишда замонавий таълим методларидан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Шунинг учун умумтаълим мактабларида амалий ва бадний безак санъати таълимнинг янги мазмунини ахборот технологиялари асосида шакллантириш, замонавий ўқув-методик мажмуалари ва ўқув тарбия жараёнининг дидактик жиҳатларини таъминлаш ва мазкур соҳа ўқитилишининг илмий-амалий масалаларини тўғри ҳал этиш, ҳозирги куннинг долзарб масалаларидан бири. Ушбу масалани ижобий ҳал қилишда ўқувчиларга кашта турлари ва уларнинг ўзига хослиги ҳақида маълумот бериш ҳамда уларни турли шаклда кашта композициялари тузишга ўргатиш, уларда ўтилаётган мавзуга нисбатан қизиқиш уйғотиш, назарий билим, амалий кўникма ва малакаларни шакллантириш, мавзуга оид тарқатилган материалларни яқка ва гуруҳ ҳолатида ўзлаштириб олишлари учун суҳбат-мунозаралар ташкил этиш, тарқатма ва дидактик материаллар тайёрлаш орқали ўқувчиларнинг билимини баҳолаш яхши натижа беради.